“Tafakkur Academy Global Press”
nashriyoti



“Ilm-fan taraqqiyoti”
respublika ilmiy konferensiyasi

Tafakkurconference.uz

Ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga ta’siri bog‘liq favqulodda vaziyatlar

Ashurova Laylo XXX
Qarshi Davlat texnika universiteti
“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrasi
katta o‘qituvchisi
ashurovalaylo83@gmail.com
tel: + 998912238415
Azizova Iroda Furqatovna
Xalqaro innovatsion universitet
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Irodaazizova415@gmail.com
Tel.+998908918889

Annotatsiya. Sanoat korxonalari faoliyati davomida turli xil favqulotda vaziyatlar vujudga keladi. Bu favqulotda vaziyatlar natijasida atrof muhitga va ishchi xodimlarga ma’lum darajada ta’sir qiladi. Favqulodda vaziyat - bu ma’lum bir ishlab chiqarish hududida avariya, tabiiy va texnogen xavf, falokat va boshqa ofat natijasida yuzaga kelgan, ishchi xodimlarning qurbon bo‘lishiga, sog‘lig‘iga yoki atrof - muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoki yo‘qotishlar hamda odamlarning turmush sharoitlarini buzilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatdir. ***Kalit so’zlar:*** *Favqulodda vaziyat, atrof – muhit, avariya, texnogen xavf, texnogen favqulodda vaziyat, baxtsiz hodisa, potentsial xavf, real xavf.*

ЧРЕЗВЫЧАЙНЫЕ СИТУАЦИИ, СВЯЗАННЫЕ С ВОЗДЕЙСТВИЕМ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

Ашурова Лайло XXX
Каршинский государственный технический университет
Кафедра «Охрана труда и техника безопасности»
старший преподаватель
ashurovalaylo83@gmail.com
тел: +998912238415

Азизова Ирода Фуркатовна
Международный инновационный университет
Студентка 4 курса направления «Педагогика и психология»
Irodaazizova415@gmail.com
тел: +998908918889

Аннотация. В ходе деятельности промышленных предприятий возникают различные чрезвычайные ситуации. Это оказывает определенное воздействие на окружающую среду и работающий персонал в результате чрезвычайных ситуаций. Чрезвычайная ситуация - это ситуация, возникшая в результате аварии, природной и техногенной опасности, катастрофы и другого бедствия на определенной производственной территории, которая может привести к гибели работников, нанести вред здоровью или окружающей среде или привести к потерям и нарушению условий жизни людей.

Ключевые слова: *Чрезвычайная ситуация, окружающая среда, авария, техногенная опасность, техногенная чрезвычайная ситуация, несчастный случай, потенциальная опасность, реальная опасность.*

EMERGENCY SITUATIONS RELATED TO THE IMPACT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES ON THE ENVIRONMENT

Ashurova Laylo XXX
Karshi State Technical University
Department of Occupational Safety and Health
Senior Lecturer
ashurovalaylo83@gmail.com
Tel: +998912238415

Azizova Iroda Furqatovna
International Innovation University
4th-year student, Pedagogy and Psychology
Irodaazizova415@gmail.com
Tel: +998908918889

Abstract. During the operation of industrial enterprises, various emergency situations arise. This has a certain impact on the environment and employees as a result of emergency situations. An emergency situation is a situation arising in a specific production area as a result of an accident, natural or man-made hazard, disaster, or other disaster that may result in the death of workers, damage to health, or the environment, or may lead to losses and disruption of people's living conditions.

Keywords: *Emergency situation, environment, accident, man-made hazard, man-made emergency situation, accident, potential danger, real danger.*

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati davomida turli xil favqulotda vaziyatlar vujudga keladi. Bu favqulotda vaziyatlar natijasida atrof muhitga va ishchi xodimlarga ma’lum darajada ta’sir qiladi. Favqulodda vaziyat - bu ma’lum bir ishlab chiqarish hududida avariya, tabiiy va texnogen xavf, falokat va boshqa ofat natijasida yuzaga kelgan, ishchi xodimlarning qurbon bo‘lishiga, sog‘lig‘iga yoki atrof - muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoki yo‘qotishlar hamda odamlarning turmush sharoitlarini buzilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatdir.

Sanoat korxonalarida atrof – muhitga ta’siri bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni baholash va ularga javob berish shaklini tanlashda yagona yondashuv maqsadida favqulotda vaziyatlar turlari, tarqalish ko‘lami, oqibatlarning og‘irligi va boshqa ba’zi belgilari bo‘yicha tasniflanadi. Amalda, favqulodda vaziyatlarning umumiy tasnifi, ularning sabablari, manbalari va namoyon bo‘lishining eng muhim ko‘rsatkichlari asosida amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar tabiatiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- harbiy favqulodda vaziyatlar;
- texnogen favqulodda vaziyatlar;
- biologik va ijtimoiy favqulodda vaziyatlar;
- tabiiy favqulodda vaziyatlar.

Favqulodda vaziyatning manbai xavfli tabiat hodisasi, avariya yoki xavfli texnogen hodisa, odamlar, qishloq xo‘jaligi hayvonlari va o‘simliklarining keng tarqalgan yuqumli kasalligi, shuningdek, zamonaviy yo‘q qilish vositalaridan foydalanish hisoblanadi.

Texnogen favqulodda vaziyat - bu obyektda, ma’lum bir hududda yoki suv zonasida texnogen

favqulodda vaziyat manbai natijasida odamlarning normal yashash sharoitlari va faoliyati buzilishi, ularning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid, obyektlar va tabiiy muhitga yetkazilgan zarardir.

Texnogen favqulodda vaziyatlar ularning paydo bo‘lish joyi (sanoat, transport) va favqulodda vaziyat manbaining asosiy zarar yetkazuvchi omillarining tabiati bilan ajralib turadi.

Texnogen favqulodda vaziyatlarning manbalari quyidagilarga bo‘linadi:

- Ishlab chiqarish jarayonidagi yong‘inlar (portlashlar, keyin yonish).
- Texnologik uskunalarning izdan chiqishi.
- Reagentlar saqlash omborlarida kimyoviy xavfli moddalar chiqishi (chiqishi tahdidi) bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar.
- Radioaktiv moddalar chiqishi (chiqishi tahdidi) bilan bog‘liq avariyalar.
- Chiqindilarni tozalash inshootlaridagi avariyalar.

Texnogen xavf - xatar va tahdidlarni insoniyat tabiiy xavflardan biroz kechroq his qildi va anglab yetdi. Texnosfera rivojlanishining ma’lum bir bosqichiga erishish bilangina insoniyat hayotiga texnogen ofatlar kirib keldi, ularning manbalari avariyalar va texnogen ofatlardir.

Zamonaviy ishlab chiqarish tobora murakkablashib bormoqda. Bu jarayonda ko‘pincha toksik va agressiv komponentlar qo‘llaniladi. Katta miqdordagi energiya kichik joylarda to‘plangan. Bularning barchasi baxtsiz hodisalar ehtimolini oshiradi. Ko‘pincha baxtsiz hodisalar falokat xarakterini oladi va fojiali oqibatlarga olib keladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida fovqulotda holat vujudga kelib avariyalar sodir bo‘lganda ishchi xodimlar, yaqin atrofdagi aholi va atrof - muhit uchun texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga keladi.

Yonuvchan, portlovchi, xavfli kimyoviy va biologik moddalardan foydalanadigan, ishlab chiqaradigan, qayta ishlaydigan, saqlaydigan va tashuvchi vositalar sanoat tarmoqlarida favqulotda vaziyatlarni vujudga keltiradigan potentsial xavfli obyektlar hisoblanadi.

Texnogen favqulodda vaziyatlarning manbalari baxtsiz hodisalar va ofatlar bo‘lishi mumkin:

Baxtsiz hodisa - obyektda, ma’lum bir hududda yoki mintaqada odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan, binolar, inshootlar, uskunalar va transport vositalarining buzilishiga, ishlab chiqarish yoki transport jarayonining buzilishiga olib keladigan shuningdek, tabiiy muhitga zarar yetkazish xavfli texnogen hodisa.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar quyidagilarga bo‘linadi:

Radiatsiyaviy avariya - radiatsiyaviy xavfli obyektda ushbu obyektning normal ishlashi uchun belgilangan xavfsizlik chegaralaridan oshib ketadigan miqdorda radioaktiv moddalarning va (yoki) ionlashtiruvchi nurlanishning ushbu obyektning normal ishlashi uchun loyihada nazarda tutilgan chegaralardan tashqariga chiqishi yoki tarqalishiga olib keladigan avariya;

Kimyoviy avariya - xavfli kimyoviy moddalarning to‘kilishi yoki chiqishi bilan kechadigan kimyoviy xavfli obyektdagi avariya;

biologik avariya - xavfli biologik moddalarning tarqalishi bilan kechadigan avariya;

Texnogen avariyalar va ofatlarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish murakkabligining oshishi, ko‘pincha bu energiyaning yuqori konsentratsiyasini talab qiladigan, inson hayoti uchun xavfli moddalar va atrof - muhitning tarkibiy qismlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan yangi texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq;
- yuqori darajada eskirish tufayli ishlab chiqarish uskunalari va transport vositalarining ishonchliligining pasayishi;
- texnologik va mehnat intizomining buzilishi, xavfsizlik sohasida xodimlarni tayyorlashning past darajasi.

Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun, atrof - muhitga har qanday ta’sirni istisno qilish mumkin emas. Korxonalarning ruxsat etilgan ta’siri atrof - muhitga ta’sir ko‘rsatadigan ekologik standartlarning qiymatlari bilan belgilanadi. Atrof - muhitga haddan tashqari ta’sir qilish O‘zbekiston Respublikasining Ekologik qonunchiligini buzish hisoblanadi va atrof - muhitda zararli moddalar yoki

boshqa ifloslanish turlarini to‘planishiga, so‘ngra ishlab chiqarish faoliyati olib boriladigan tabiiy hudud ekotizimlarining o‘zgarishiga, ayrim hollarda esa qaytarib bo‘lmaydigan holatga olib keladi.

Favqulodda vaziyatlar natijasida ifloslangan hududlarni tiklash bo‘yicha ishlar, bir necha bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

1. Favqulodda vaziyatning oldini olish.
2. Favqulodda vaziyatlarda kuchlar va vositalarni tashkil etish hamda ularni to‘liq tayyor holda saqlash.
3. Favqulodda vaziyatni lokalizatsiya qilish bo‘yicha harakatlar.
4. Vaziyatning oqibatlarini baholash.
5. Oqibatlarni bartaraf etish.
6. Tahlil.

Sanoat korxonalarida, favqulodda vaziyatlarda, “Baxtsiz hodisalarni bartaraf etish rejalari” ishlab chiqish kerak. Favqulodda vaziyatlar, atrof - muhitga ta’sir ko‘rsatishi sababli, ular bunday ta’sirni lokalizatsiya qilish, kamaytirish va yo‘q qilish choralarini o‘z ichiga olishi kerak. Yoki bunday rejalar har bir salbiy ta’sir holati uchun alohida ishlab chiqiladi.

Potentsial baxtsiz hodisalarni bartaraf etish rejalarini ishlab chiqishda mavjud boshqaruv tizimi, muhandislik hisob - kitoblari, ishlab chiqarish tajribasi va ekologik amaliyot hisobga olinadi.

“Mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarni bartaraf etish bo‘yicha rejalar” korxonalar rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi, nazorat qiluvchi organlar bilan kelishilishi va keyinchalik xodimlar yetkazilishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni takidlab o‘tish kerakki ishlab chiqarish korxonalarida turli xil favqulotda vaziyatlarni oldini olish uchun xodimlarning texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishini hamda maxsus yo‘riqnomalar bilan tanishganligini doimiy nazorat qilib borish kerak. Bu ko‘rsatilgan tavsiyalarning amaliyotda qo‘llanilishi nafaqat xodimlarning salomatligi va atrof muhitning ishlab chiqarishdagi favqulotda vaziyatlar natijasida turli darajada ifloslanishini bartaraf etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dixon Thompson. Serena Van Bakel. A practical Introduction to Environmental on Canadian Campuses.
2. Robert A. Corbitt. Standart handbook of Environmental Engineering. New York. USA 2002.
3. C.B. Makarov. T.B. Гусевю “Экологический менеджмент”. Учебное пособие, M..Химия в России. 2003 г.
4. O’zbekiston Respublkasini yanada rivojlantirish bo’yicha Xarakatlar strategiyasi to’g’risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.